



**ХОРАЗМИЙ  
МУХАББАТНОМА**



## MUHABBATNOMA



### AVVAL KO'RISHKANIN AYTUR

Tun oqshomkim, ko'rundi bayram oyi,  
Muhammad Xojabek — davlat humoyi.  
Buyurdi, o'zga shodurvon uruldi,  
Qadah keltirdilar, majlis quruldi.  
Husayniy pardasi uzra tuzub soz,  
Mug'anniy bu g'azalni qildi og'oz...

### BAYONI VOQEIN AYTUR

Tabassum qildi, aydi: «Ey falone,  
Keturgil bizga loyiq armug'one.  
Ko'ngul bahrinda ko'p gavharlaring bor,  
Ochunda porsiy daftarlaring bor.  
Muhabbat nardini ko'plardin uttung,  
Shakartek til bila olamni tuttung.  
Tilarmenkim, bizing til birla paydo,  
Kitobe aylasang bu qish qotimdo, —  
Kim ush eltek kechar ayyomi foniy,  
Jahonda qolsa bizdin armug'one».  
Qabul qildim, er o'ptim, aydim: «Ey shoh,  
Eshiking tuprog'i davlatli dargoh.  
Kuchum etmishcha ko'p xizmat qiloyin,  
Jahonga ezgu otingni yoyoyin.  
Bukun tongqa tekin may no'sh qilg'in,  
Badiha bu g'azalni go'sh qilg'in»...

## MASNAVIY

Rovisqincha g'azal, shah go'sh tutti,  
Manga xil'at kiyurib, qo'sh tutti.

Biroz kechti dag'i majlis isindi,  
Qadah chavruldi-yu may boshqa mindi.

Yana fursat bila bo'ldum mahalni,  
O'qudum xizmatinda bu g'azalni.

## G'AZAL

Yaratqonkim, tan ichra jon yaratti,  
Seni ko'rkluklar uzra xon yaratti.

Quyosh yanglig' yuzungizni yorutti,  
Falakdek bizni sargardon yaratti.

Xaloyiq qiblasini bo'ldi jamoling,  
O'shal kunkim seni Yazdon yaratti.

To'lin oy ta'biya sarv uzra qildi,  
Meni ul surata hayron yaratti.

Eshitting ersa Yusufning jamolin,  
Seni husn ichra sad chandon yaratti.

Karim Tengri kamolin qilsa izhor,  
Sen oyni bo'yla benuqson yaratti.

Zihi qodirkim ul bir qatra suvni  
Muhabbat gavharinga kon yaratti.

Azalda qildi Xorazmiyni muhtoj,  
Tag'i manzurini sulton yaratti.

## MASNAVIY

Kitobat boshladim, anjoma etgay,  
«Muhabbatnoma» Misr-u Shoma etgay.

Bu xon uzra saloyi oma qildim,  
«Muhabbatnoma»ni o'n noma qildim.

Qiloyin ikki bobin porsiy ham,  
Kim atlas to'n yaroshur bo'lsa mu'lam.

Burun alqissa bek madhin ayoyin,  
Ush and in so'ngra noma boshlag'oyin.

Zihi arslonyurak Qo'ng'rot urug'i,  
Kichik yoshdin urug'larning ulug'i.

Saodat ma'dani, iqbol ganji,  
Muhammad Xojabek olam kunji.

O'za jonsiz tan erdi mulk sansiz,  
Shahanshoh Jonibekxong'a etansiz.

Sipohing taqviyatlar dinga berur,  
Faridun ganjini miskinga berur.

Sulaymon saltanatliq podsho sen,  
Masih anfoslik Yusufliqo sen.

Oshar eldin sening elganda oting,  
Quyosh yanglig' jahonni tutti oting.

Agar ming yil tirilsa Hotami Tay,  
Sening oting eshitgach, erlar o'pgay.

Erur davlatqa diydoring tafovul,  
Bo'lubtur tal'atingg'a Mushtariy qul.

Ulus tuttung qamuq aqling kuchindin,  
Cherikda qon tomar qamching uchindin.

Sango judu shijoat bo'ldi pasha,  
Shijoat birla judungdin hamesha.

Gahe Hotam uyolur bazm ichinda,  
Gahe Rustam yuponur razm ichinda.

Qachonkim ikki saf bo'lsa muqobil,  
Sening chokarlaring-o'q ko'krayur bil.

Kirar razm ichra to'yg'a kiru yangliq,  
Achiqmish bo'ri qo'yg'a kiru yangliq.

Agar desam seni Rustam, yararsen,  
Qiliching birla saflarni yorarsen.

Agar madhing bitisa ko'k dabiri,  
Tugalmas ming yil ichra mingda biri.

Necha kim bo'lsalar ko'k ichra jovid,  
Atorid bitqachi, barbatcheshi Nohid.

Quyoshdek davlating tobanda bo'lsun,  
Eshikingda eti ko'k banda bo'lsin.

Ayitsin banda Xorazmiy duolar,  
Karamdin har zamon qilg'in atolar.

Sanodin o'zga nav' atlas to'quyin,  
Qish o'rtada bahoriyot o'quyin, —

Kim uchmoqtur sening bazming binosi,  
Hamesha yoz erur jannat havosi.

### G'AZAL

Qadah chavruldi ush bo'ston ichinda,  
Xush ichkil rohani rayhon ichinda.

Chaman farroshi, ya'ni tong nasimi,  
Gulafshonliq qilur bo'ston ichinda.

Ochildi yoz, kechdi ul kim erdi,  
Chaman Yusufdari zindon ichinda.

Chechak yaproqlari erga tushubtur,  
Aningtek kim aqiqlar kon ichinda.

Kel, ey uchmoq guli, chimgonga chiqqil,  
Bu kun o'lturmag'il ayvon ichinda.

Bizing bek yodig'a ishrat qiloli,  
Nechakim yo'qturur biz son ichinda.

Muhammad Xojabek, ulkim Alitek,  
O'kush javlon qilur maydon ichinda.

O'qi nogah agar sandong'a teksta,  
Bashog'i itlanur sandon ichinda.

Ayo sohibqironekim, uzarlar  
Qilichindan aduvlar qon ichinda.

O'kush yillar Yaratqon boqi(y) tutsun,  
Hayotingni, begim, davron ichinda.

Nishon bermas kim ersa mislingizni,  
Iroq-u Rum-u ham Kan'on ichinda.

Xorazmiyning ketib aqli boshindin,  
Turur tek surati yo'q jon ichinda.

### **VASF UL-HOL AYTUR**

Yigitsen, boda ichkil, nuql oshog'il,  
Bugundin so'ng yuz ellik yil yashog'il.

Nishot-u aysh no'shono'sh qilg'il,  
Xiradni may bila madhush qilg'il,

Kim asru bevaforur bu zamona,  
Jahon qolmas kishiga jovidona.

Ulusqa rahm etib g'amxor bo'lg'il,  
Hamesha shod-u barxurdor bo'lg'il.

Jahonni ezgu oting tutti mutlaq,  
Yamon ko'zdin yiroq tutsin seni Haq.

Muhabbat birla jonindin bu miskin,  
Duo qildi, ijobat bo'lsin, omin.

Muhammad Xojabek madhin tugattim,  
«Muhabbatnoma»ni bunyod ettim.

### **AVVALGI NOMANI AYTUR**

Ayo ko'rk ichra olam podshohi,  
Jahon tutti sening husnung sipohi.

Pari ruxsoralarning ko'rkka boyi,  
Yuzing navro'z-u qoshing bayram oyi.

Ko'ngil shirin so'zingga bo'ldi Farhod,  
Ko'zung Kashmir jodusig'a ustod.

Qaro meng ol yanoqingga yaroshur,  
Boshim doim adoqingga yaroshur.

Bo'yung sarv-u sanubartek, beling qil,  
Vafo qilg'on kishilarga vafo qil.

Aqiqing suhbatindin jon bo'lur so'z,  
Qamartek chehranga boqsa Qamar ko'z.

Urur nargislaring novakni jong'a,  
Kular chehrang chechaktek arg'uvong'a.

Muhabbat nori jondin ketmadi hech,  
Qo'lim siym olmangizg'a etmadi hech.

Saroydin bordi Chin-Moching'a choving,  
Qiyο boqsang, bo'lur arslonlar oving.

Tabassum qilsangiz shakkar uyolur,  
Tishing injusidin gavhar uyolur.

Jamoling etti olamga sipahlar,  
Qatingda er o'parlar jumla shahlar.

Falak ishqing yo'linda besar-u poy,  
Isirg'ang donasi Zuhra, yuzung Oy.

Latofat mulkida sultonsen, ey jon,  
Qamuq boshdan-oyoqqa jonsen, ey jon.

Qatiq kulsang, magar og'zing bilurgay,  
Pari ko'rsa seni, mendak tilurgay.

Soching bir torina ming hur etmas,  
Yuzungning nurina ming nur etmas.

Agar bersa suyurg'ab Haq taolo,  
Kerakmas sensizin tirdavsi a'lo.

Ko'ngulning qoni qaynab barcha toshqay,  
Ko'zumning yoshidin kavsar buloshqay.

Kishining sensizin ne joni bo'lsun,  
Aningtek umrning ne soni bo'lsun.

Shakar erning naboti Xizra o'xshar,  
Oyog'ing kimki o'psa, mangu yoshar.

Jamolingtek kishining yo'q jamoli,  
Darig'o, bo'lmasa erdi zavoli.

Qiyomat ko'rklusen, husnungg'a ne so'z,  
Yiroq bo'lsun jamolingdin yovuz ko'z.

Bukun yo'qtur sen Oytekk ko'kta, asra,  
Qulung bechora Xorazmiyni asra.

### **MASNAVIY**

Kel, ey soqiy, keturgil bodayi nob,  
Kula-o'yna-yu ichsunlar bu ashob,

Kim ush eltek kechar ayyomi foniy,  
Ajaldin hech kishining yo'q amoni.

Saburdin yaxshi yo'qtur pesha qilsam,  
Bu yo'lda sabr, yo'q andesha qilsam.

### **IKKINCHI NOMASIN AYTUR**

Salomin gulga elt, ey tong nasimi,  
–Kim erur oy quli, axtar nadimi.

Salomekim ko'ngul jonona aysa,  
Yorur ko'zlar savodidin bitisa.

Salomimni tegur ul dilsitong'a,  
Rahmsiz bevafo joni jahong'a.

Salomimni tegur ul ko'rka boyg'a,  
–Kim urur chehrasi ming ta'na oyg'a.

Salomimni tegur ul xushliqog'a,  
Qamuq boshdin-oyoq obi baqog'a.

Ayitqil, ey bo'yung tubi butoqi,  
Qulung(ning) haddin oshti ishtiyogi.

Ayitqil, ey visoling umr bog'i,  
Eshiging tuprog'i kavsar bulog'i.



Ayitqil; ey so'zi yolg'on-jafokor,  
Qarog'lari qaroqchi, o'zi ayyor.

Ayit, ey mehring oz, ishvang farovon,  
Netadur ul og'izda muncha yolg'on.

Ayit mendinkim, ul miskin urur oh,  
Qachon engay gadoning evina shoh.

Qachon qilg'ay ko'zumni yoqtu ul oy,  
Erur yuzi Quyoshtek olamoroy.

Qachon la'ling qadahlar no'sh qilg'ay,  
Karashmang bandani madhush qilg'ay.

Zihi farxunda tole' baxtiyori,  
-Kim ul hazratta bir kun topsa bori.

Yuzungdin bilgurur davlat nishoni,  
O'ramung tuprog'i, baxt oshyoni.

Jahon tutti jamoling, dod qilg'il,  
Bu miskinni birar ham yod qilg'il.

Seningdek podshoning marhabosi,  
Meningtek ming gadoning xun bahosi.

Kuchum etguncha ko'p qildim vafolar,  
Vafoliq qulni asrar podsholar.

Manga sensiz o'lumdir bu hayotim,  
Sening mehring bila yog'ruildi zotim.

Ko'ngulga o'zganing mehrin yovutmon,  
Yiroqlik birla men sizni unutmon.

Erurman vaslinga doim talabgor,  
Nechakim tun uzun bo'lsa, tongi bor.

Topilg'ay maqsudum tabqungda bori,  
Saodat qilsa Xorazmiyg'a yori.

Og'ir uyquchi baxtim necha yotqay,  
Visoling mashriqindin ham tong otqay.

## MASNAVIY

Kel, ey soqiy, keturgil jomi Jamni,  
Kishining ko'nglidin may yur g'amni.

Kim oshti ko'kka ohim ihtiroqi,  
Kuyurdi ko'nglumi dilbar firoqi.

Saburdin yaxshi yo'qtur pesha qilsam,  
Bu yo'lda sabr yo'q andesha qilsam.

### UCHINCHI NOMASIN AYTUR

Ayo xurshidtek olam charog'i,  
Munavvar chehrangiz firdavs bog'i.

Qamuq ko'rkluklar uzra podshosen,  
Masih anfosliq Yusufliqosen.

Ochilsa la'lingiz shakkar sochilur,  
Ko'rib gulg'unchaning og'zi ochilur.

Bo'yingtek sarv yo'q bo'ston ichinda,  
Yuzung nuridin oy nuqson ichinda.

Jahon bo'ldi jamolingdin munavvar,  
Zihi husn-u jamol Allohu akbar.

Qilur zulfing qamuq olamni shaydo,  
Bo'lur jodu ko'zungdin fitna paydo.

Yarar ming jon bir ishkoling fidosi,  
Ko'zum mardumi xolingning fidosi.

Seni ko'rgan o'zindin yot bo'lur,  
Ruxungni ko'rsa ming shah mot bo'lur.

Iki zulfing ko'ngullarning panohi,  
Eshiking tuprog'i jon sajdagohi.

Raqibingdur tikan, siz toza gulsiz,  
Chechak chingon aro bo'lmas tikansiz.

Shakardin totli so'zli dilrabosen,  
Dareg'okim, chechaktek bevafofen.

Sening yoding qilurmen ko'p g'azalda,  
–Kim erdim onung'a oshiq azalda.

Manga haddin oshirma bu jafoni,  
Ko'zingdin solma bu miskin gadoni.

Eshitkil bu g'azalda ishlaridin,  
Muhammad Xojabek aytmishlaridin.

### **MASNAVIY**

Kel ey, gulchehra soqiy, may keturgil,  
Meni hayrat maqomig'a eturgil.

Habibim naqshidin ma'ni bo'loyin,  
Tahayyurda o'zimdanda qutuloyin.

Saburdin yaxshi yo'qtur pesha qilsam,  
Bu yo'lda sabr yo'q andesha qilsam.

### **BESHINCHI NOMASIN AYTUR**

Ayo gulchehralar molik rikobi,  
Qamuq olam sening g'amzang xarobi.

Latofat mulkining sohibqironi,  
Muvofiq surating birla maoni.

Xiraddin ozdurur g'amzang xumori,  
Yang'oqlaring Xalilulloh nori.

Sening husnuna qamuq olamda mashhur,  
Yuzungdin kizlanibtur xuld aro hur.

Ko'ngulga jondin ortiqroq keraksen,  
Pari-yu hurdin ko'rkluraksen.

Farishta ko'rsa bo'lg'ay sizga moyil,  
Sizingtek kimda bor shakl-u shamoyil?

Yarar jon desalar yoqutungizg'a,  
Teng etmon Zuhrani Horutungizg'a.

Men asru benavo, siz muhtashamsiz,  
Latif-u nozik-u zebo sanamsiz.

Qilur o'z joninga qasd, o'zi boyiq,  
Gadoekim bo'lur sultona oshiq.

Mening dardimg'a darmon vasl erur bas,  
Vale hargis ulashmas gavhari xas.

Sabotek bilmas oxir o'z chog'ini,  
Bosar har dam eshiging tuprog'ini.

Kuyar ko'nglum saboning ul ishindin,  
Nechukkim kuysa xirmanlar yashindin.

Kular Oy husnunga qultek engingiz,  
Qarodur lola ko'nglitek mengingiz.

Menga uchmoq erur vasling huzuri,  
Yuzungdin shu'la urur Tengri nuri.

O'ramung itlarining ittihodi,  
Ko'ngullar maqsudi, jonlar murodi.

Chechak derman yuzungizga, qamar ham,  
Xaloyiq sevganin Xoliq sevar ham.

Sening ishqing kamandi bizni tortar,  
Jamoling ravnaqi olamni o'rtar.

O'shul kunkim, seni Xoliq yaratti,  
Seni dilbar, meni oshiq yaratti.

Manga tabqungda hargiz bo'lmadi son,  
Kishi ul saltanatni olmas oson.

Aningkim sidqi bo'lsa sizga zohir,  
Ani sizteklar asrar bo'lur oxir.

Nechakim bersa chehrang ko'zlara nur,  
Chechaktek bo'lmag'il husnungga mag'rur.

Sening ishqingda Xorazmiy yo'qoldi,  
Va lekin er yuzunda oti qoldi.

### **MASNAVIY**

Kel, ey oy yuzli dilbar, tut biror qo'sh,  
Biror qo'sh birla qilg'il bizni madhush.

Bo'loli aysh-u ishratpeshalardin,  
Qutulsin ko'nglumiz andeshalardin.

Saburdin yaxshi yo'qtur pesha qilsam,  
Bu yo'lda sabr yo'q, andesha qilsam.

### **ETTINCHI NOMASIN AYTUR**

Ayo zebo sanam shohi qaboyil,  
Taolilloh zihi shakl-u shamoyil.

Shakar ering qachon so'z qilsa og'oz,  
Qilur jon to'tisi tanlarda parvoz.

Shakarmu erningiz yo qand, yo jon,  
Uyolur la'lingizdan obi hayvon.

Qachonkim bo'lsa tor og'zing shakarbor,  
Sabo gulg'unchaning og'zini yirtor.

Qaro qoshingda yuz ming fitnalar bor,  
Ko'zung ohusi arslonlarni ovlar.

Sango payvasta, ey koni malohat,  
Ko'zung qoshing bila o'q yo ne hojat.

So'zung Shirin, O'zung Xisravdin afzun\*, (\* *Avzun – ortiq.*)

Bo'lur Layli sening husnungga Majnun.

Bilik bilmak ichinda javharisen,  
Vale husn ichra javhardin arisen.

Quyosh har kun yuz urur ul qobuqqa,  
Jamoling soldi Yusufni quduqqa.

Qaro kirpukunga qunduz tengolmas,  
Saqoqingni yoqang kunduz o'par bas.

Dudog'ingdin ko'ngul jon hosil etmas,  
Ayoqing turpog'in o'psam, ne etmas.

Tilarmen kim yuzungga sajda qilsam,  
Visoling qadrining shukrini bilsam:

Sening ishqingda bag'rimdin oqar qon,  
Jamolingning tamoshosin tilar jon.

Jamolingdin xirad shaydo bo'lubtur,  
Ichim-bag'rim qamuq savdo to'lubtur.

Qachon o'lsam sango qadrim bilurgay,  
Bu yo'lga tushsa Aflotun telurgay.

Karashma birla oshiq o'lturursiz,  
Siz o'lturgan kishi o'lgaymu hargiz.

Qilibtur xalqni shaydo karashmang,  
Qiyomatlar qo'par paydo karashmang.

Nechuk mehringni jonimdin bo'yoyin,  
Ko'ngul sizdin olib kinga beroyin.

Bihamdulloh sening husnung chog'inda,  
Erimiz bor eshiking tuprog'inda.

Tirik bo'ling, shaho, davron borincha,  
Qulunguzmen tanimda jon borincha.

Umr kechti qamug' savdo ichinda,  
Necha yuzgay kishi daryo ichinda.

Ko'ngul ikki jahonni ko'zga ilmas,  
Sening ishqing umrning hosili, bas.

Jahondin oshunu ming yil qildi Xoliq,  
Sening husnungg'a Xorazmiyni oshiq.

Dovur sizning turur davron borincha,  
Qulunguzmen tanimda jon borincha.

### MASNAVIY

Kel, ey soqiy, nazardin solmag'il gal,  
Ketur ul mayki, bo'lg'ay bizga sayqal.

Erur bechora Xorazmiy murodi,  
Iki olamda dilbar ittihodi.

Saburdin yaxshi yo'qtur pesha qilsam,  
Bu yo'lda sabr yo'q, andesha qilsam.

## TO'QQUZUNCHI NOMASIN AYTUR

Ayo ohu nazarlar shahriyori,  
Husn maydonining chobuksuvari.

Qilich ursang, qulungman jovidona  
Va gar o'q otsangiz bag'rim nishona.

Tanim borincha sendin yuz jevurman,  
Eshiking tuprog'indin bosh ko'turman.

Qamuq umrim sening nozing fidosi,  
Mening ko'nglum qushi bozing fidosi.

Nechakim ilmasangiz ko'zga bizni,  
Ko'ngul jon ichra asrar mehringizni.

G'animattur umur navqoni bizga,  
Muboh erur ko'ngullar qoni sizga.

Jamoling madhidin ofoq to'ldi,  
Sango olmoq ko'ngulni xatm bo'ldi.

Achiq so'zi Qirim shahdig'a o'xshar,  
Jamol ayyomi gul ahdig'a o'xshar.

Seni ko'rsa kechar tarso sanamdin,  
Vujudga kelmadi tsentek adamdin.

Qachon zulfing nasimi Ruma esgay,  
-Kim ul yo qoshlaring zunnor kesgay.

Manga ishqing yo'linda qon ko'runur,  
Yuzing oyinasinda jon ko'runur.

Yarotti oy bikin zebo seni Haq,  
Kim ush chehrang berur olamg'a ravnaq.

Meni qildi falakdek besar-u poy,  
Tag'i ming yil saningdek tug'mag'ay Oy.

Jahonning fitnasi usruk ko'zungda,  
Ayon Iso dami shirin so'zungda.

Kishining poklarg'a ko'ngli tortar,  
Husn xud pokdomanliqtin ortar.

Agar ko'rsa seni ham lola so'lg'ay,  
Seningdek gul magar uchmohda bo'lg'ay.

Ayoqing o'pmakin qul qildi odat,  
Sulaymon bo'lmadi mundoq saodat.

Visolingning bu kun shukrin qilurman,  
Xayoling ko'zda uchqonin bilurman.

Quyosh aksi yuzungdin roh ichinda,  
Seningdek yo'q chechak uchmoh ichinda.

Quling ko'ptur vale men inja qulmen,  
Visoling qadrini bilmas dugulmen.

Ko'ngul sensiz tjlomas tanda jonni,  
Ko'rar yuzungda Xorazmiy jahonni.

### **MASNAVIY**

Kel, ey soqiy, ketur paymona bizga,  
Inoyatlar qilur jonona bizga.

Icholing bodani jonon yuziga,  
Xizir suyin socholing jon yuziga.

Saburdin yaxshi yo'qtur pesha qilsam,  
Bu yo'lda sabr yo'q, andesha qilsam.

### **O'NINCHI NOMASIN AYTUR**

Ayo nomehribon ahdi baqosiz,  
Jahon eltek, umr gultek vafosiz.

Qamuq yoqut erinli, so'zi durlar,  
Vafosizliqni sizdin o'rganurlar.

Umr mehnat bila poyona keldi,  
Ko'ngul javring alindin jona keldi.

Meni o'lturdi ishqing, bermading dod,  
Borurmen ostonangdin, xayrbod.

Ko'zum ko'rdi jamoling shevasini,  
Ko'ngul totmadi bog'ing mevasini.



Erur jon maqsudi erning naboti,  
Husnning ham bo'lur oxir zakoti.

Senga to bo'ldim, ey jon, oshnomen,  
Jafong ilgindin asru mubtalomen.

Soloyin o'zumi o'zga diyora,  
Ko'ngulni bog'lag'oyin o'zga yora.

Telim gulchehra nargis ko'zlilar bor,  
Shakar dudog'li, shirin so'zlilar bor.

Vale ko'ngul qutulmas domingizdin,  
Qamuq shakkar tomar dashnomingizdin.

Bag'ishlosang qonim, sultonsen, oxir,  
Ko'zumga nur, tanimga jonsen, oxir.

Davr sizningdurur davron borincha,  
Qulungizmen tanimda jon borincha.

Bilurmenkim, sizingdek bo'lman, ey jon,  
Bo'yunsundim jafog'a, qulman, ey jon.

Kishi qayda o'larin bilsa bo'lmas,  
Haqiqat yoridin ayrilsa bo'lmas.

Xirad birla jahon afsonasi men,  
Vale zanjiringiz devonasi men.

O'lumdur bizga jononsiz tirilmak,  
Mahol erur tana jonsiz tirilmak.

Ko'ngul mehri nazar yo'lindin ortar,  
Nigori javrini jon birla tortar.

Husnni to huvaydo qildi Xoliq,  
Husn birla vafo bo'lmas muvofiq.

Jafodin ingramas bu yo'lda ushshoq,  
Vafodin javringiz ming qatla xushroq.

Evurman yuz, nechakim kelsa mehnat,  
Jafo sizdin, tag'i bizdin muhabbat.

O'g'on Yusuf jamolin sizga berdi,  
Muhabbat kimyosin bizga berdi.

Bu Xorazmiy «Muhabbatnoma»sini  
Atorud ko'rdi, soldi xomasini.

### MASNAVIY

Kel, ey soqiy, keturgil xush sabuhi(y),  
–Kim ushbu dam erur jonning futuhi.

Icholing bodani gullar so'liyor,  
Tanimiz oqibat tuproq bo'liyor.

Bu erga etti so'z oxir bo'ldi,  
Burun o'n dedim, u o'n bir bo'ldi.

### MUNOJOT

Ilohi, yoqtu qilg'il jonimizni,  
Xalaldin saqlag'il imonimizni.

Tikandin qudrating paydo qilur gul,  
Xato ko'p keldi men quldin, kechurgil.

Ayo farxanda tole' tal'ati kun,  
Seni Tengri murodingg'a tegursun.

Muhammad Xojabek — Jamshidi soniy,  
Jahonning orzusi-yu xalq xoni.

Saodatni hunarga yor qilg'il,  
Hunardin bizni barxurdor qilg'il.

So'zum bokrini ko'rguz shahg'a shirin,  
Shahikim qildi Xusravlarni Shirin.

Ayoyin emdi bir qit'a, eshitgil,  
Nechukmen hol-u ahvolimni bilgil.

### QIT'A

Tama' dominda qolur qush emasmen,  
Talim\* ayvon uza uchqon Humomen. (\* *Talim – Baland.*)

Qilichtek til bila tuttum jahonni,  
Qanoat mulki ichra podshomen.

Xarobot ichra, masjidida erim bor,  
Kim ush ham rindmen, ham porsomen.

Necha hashmatli sulton bo'lsa — bo'lsin,  
Aytimon mol uchun madh-u sano men.

Qiyomatqa tekin qolsun oting teb,  
Sening tabqungg'a bo'ldum oshno men.

### **XOTIMAT UL-KITOB**

«Muhabbatnoma» so'zun munda ayittim,  
Qamug'un Sir yoqosinda bitidim.

Nazar birla agar Jamsen, gar Osaf,  
«Muhabbatnoma»(ni) qilsang musharraf.

O'qig'il fotihada qibla yoni,  
Sevunsun banda Xorazmiy ravoni.

Bu daftarkim, bo'lubtur Misr qandi,  
Eti yuz elli to'rt ichra tugandi.

Tugatmaklikka Haq berdi inoyat,  
Eshitgil emdi ham bir xush hikoyat...

### **ILTIMOSIN AYTUR**

Muni kim ishq birla bir o'qug'ay,  
Haqiqat olamini munda bilg'ay.

Ayitqon bu kitobni ham bitigay,  
Tilarmen kim duoda yod qilg'ay.

### **FARD**

Niyozim bu turur sendin, nigoro,  
Unutma bandani bahri Xudoro.